

# O'QUV KURSINI TAMOMLAGAN YOSHLARGA SERTIFIKAT TOPSHIRILDI



Qo'shtepa tumani hokimligi hamda Tadbirkorlikka ko'maklashish markazi tomonidan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etildi. Kurslarda yigit-qizlarga biznes yuritish sirlarini o'rgatish maqsadida nazariy-amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.



Mana shunday yoshlardan 12 nafari o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, sertifikat olishga muyassar bo'ldilar. Ushbu sertifikatlar tuman hokiminining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosari - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i A. Yunusov ishtirokida topshirildi.

Ayni vaqtida "Yoshlar dafatari"dagi 22 nafar va "Ayollar daftari"ga kiritilgan 9 nafar ayollar o'quv kurslarida o'qib biznes yuritish sirlarini o'rganmoqdalar.

## **Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#),

2021-02-27 20:22:05